

# TONG

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

www.tongyulduzi.uz

2011-yil  
9-may  
N:19  
(66820)

# yulduzi

ISSN – 2010-6092

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

**9-may —  
Xotira  
va  
qadrlash  
kuni**



Shahiddin ORIPOV o'lgan surati



Zulfiya nomidagi Davlat  
mukofoti sohibalari



## BIBINAZ

Qoraqalpoq qizi Kaipova Bibinaz Bazarbay qizi Qoraqalpoq'iston Respublikasidagi ixtisoslashtirilgan san'at maktab-internatining 9-sinfida tahsil oladi. Bilim maskanidagi intiluvchan, izlanuvchan o'quvchilardan biri bo'lgan Bibinaz tasviriy san'at yo'nalishi bo'yicha ijod qiladi. U mamlakatimiz va xalqaro miqyosda o'tkazilgan bir qator ko'rik-tanlov va ko'rgazmalarda faol ishtirok etib, maktabi sharafini munosib himoya qilgan bo'lsa, 2007-yilda Polshada o'tkazilgan IX Xalqaro bolalar va o'smirlar rasmlari tanlovi g'olibi hamda Hindistonda o'tkazilgan «Shankar» Xalqaro bolalar rasmlari tanlovining kumush medali sovrindori bo'lib, yurtimiz nomini yana bir bor dunyoga tanidi.

Shuningdek, 2007-yilda Qoraqalpoq'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan «Yer yuzida tinchlik bo'lsin!» mavzusida o'tkazilgan rasmlar ko'rik-tanlovida ham 1-o'rinni egalladi. Oradan bir yil o'tib, O'zbekiston Badiiy Akademiyasining Qoraqalpoq'iston Respublikasi bo'limi tomonidan o'tkazilgan «Konstitutsiya – baxtimiz poydevori» rasmlar tanlovi g'olibi bo'ldi.

2009-yil ham yosh musavvir hayotida unutilmas iz qoldirdi. «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivalining respublika bosqichi laureati bo'lish baxtiga musharraf bo'ldi. O'zbekiston Badiiy Akademiyasi tomonidan o'tkazilgan «Tasviriy san'at haftaligi» ko'rgazmasidagi faol ishtiroki uchun munosib taqdirlandi.

Beg'ubor qalbi oppoq orzularga limmo-lim Bibinaz singari iqtidorli o'g'il-qizlar nafaqat ota-onasi, balki yurtning, millatimizning ham porloq kelajagi timsolidirlar.



# BIZNI DO'RMON DO'STLASHTIRDI

Respublikamiz yozuvchilarining Do'rmondagi ijod uyida o'tgan «Bolalar adabiyoti kunlari» seminarining aprel oyidagi anjumani har tomonlama ibratli bo'ldi. Seminar rejasida ko'zda tutilgan ommaviy tadbirlardan tashqari, ayniqsa, qo'lyozmalarning muhokamalari qizg'in o'tdi va ko'zlangan maqsadga erishildi.

Uyushmaning rahbariyati bu ijodiy yig'in samarali bo'lishi uchun barcha shart-sharoitlarni yaratib berdi. Bolalar adabiyoti kengashi a'zolari, faollar 60 dan ziyod qo'lyozmalarni o'qib, ulardan eng saralarini tanlab olishda xolis xizmat qilishdi. Shuningdek, «Gulxan», «G'uncha» jurnallari hamda «Ma'rifat», «Tong yulduzi» gazetalarini jamoasi ham yaqindan yordam ko'rsatdi.

Bundan ellik yil avval ulug' ustozimiz Mirtemir domla yetakchiligida Do'rmonda o'tgan shunday seminar-kengash bahonasida Obid Rasul, Habib Rahmat, Yo'ldosh Sulaymon, Safar Barnoyev, Qambar O'tayev, Olim Mahkam kabi bolalar shoirlari bilan yaqindan tanishib, do'stlashgan edik. O'shanda Quddus Muhammadiy, Shukur Sa'dulla, Hakim Nazir, Tolib Yo'ldosh hamda Po'lat Mo'min singari kichikintoylar adabiyoti darg'alaridan saboq olgandik. O'shanda bolalar adabiyoti shobasini betakror ustoz shoir Quddus Hikmat boshqarib, qo'lyozmalari muhokamaga qo'yilgan tengdoshlarimizning ijod namunalari yuzasidan o'rinni fikrlar aytib, kichikintoylar uchun asar yozganda nimalarga e'tibor berish lozimligini alohida uqtirgan edi.

Xo'sh, yaqinda Do'rmonda o'tgan seminar bundan ellik yil avvalgi kengashdan nimasi bilan farq qiladi, degan o'rinni savol tug'iladi.



Birinchi galda hozirgi yoshlar bizdan savodliroq, texnika asrining barcha yangiliklaridan xabardor. Faqat malaka va tajriba yetishmaydi xolos. So'z ustida ishlab, uni o'z o'rnida ishlatgan taqdirda muddaoga erishadi. Internet va televideniyeiga mixlanib qolmay, jahon adabiyotini izchil o'rgansagina ko'zlagan orzusiga yetadi.

Muhokamada Qoraqalpog'iston Respublikasidan taklif qilingan beshta muallifdan Mehribongul Tojimurodova, Aytgul Qurboniyozova va Sabohat Sa'dullayevlarning qo'lyozmalari yaxshi baho oldi.

Ayniqsa, beruniylik 9-sinf o'quvchisi Sabohatning «Qo'ng'iroq» sarlavhali she'ridagi o'ziga xos falsafiy xulosa tinglovchini befarq qoldirmaydi.

## QO'NG'IROQ



Sen qadrdon maktab bilan Xayrlashgan kunda jim, Qo'ng'iroqni oxirgi, deb O'ylamagin, ey do'stim.

Endi bizlar hayot degan Zo'r dargohda o'qiyimiz, Ishlab turli sohalarda, O'z rizqimiz cho'qiyimiz.

Saboq berar, sinar hayot, Ta'nili-chi, yo'q biroq. Umrimizning so'ngigacha Chalib turar qo'ng'iroq!

Shuningdek, mazkur anjumaning eng yosh qatnashchilari toshkentlik Azizbek Saidov, Madinabonu Baxtiyor qizi, Isomiddin Samadullayev kabi-

larning mashqlaridagi topqirlikka omdalar tilandi.

Yozuvchilar uyushmasi huzuridagi «Ijod» fondi hisobidan seminar-kengashda ishtirok etgan o'ttiz ikki ijodkorning qo'lyozmalaridan tanlab olingan she'r, hikoya va qatralardan iborat almanax va alohida to'plamlarni nashrga tayyorlash bo'yicha tashkiliy ishlar qizg'in boryapti. Muho-kama jarayonida bizga Muhabbatxon Hamidova, Oygul Suyun-diqova, Go'zalbegim, Dilshod Rajab, Muzaffar Ahmad, Abdurahmon Akbar, Muazzamxon Ibrohimova singari qalam ahlari yaqindan yordam ko'rsatishdi.

Birinchi marta respublika miqyosida o'tgan «Bolalar adabiyoti kunlari» seminarida o'ngga yaqin yosh adiblar va to'rtta iqtidorli shoirlar kashf qilindi. Xayrlashuv muhokamasida esa Do'rmonga bag'ishlab yozilgan she'rlar ishtirokchilarning olqishiga sazovor bo'ldi. Shu anjuman bahonasida o'ttiz ikki ijodkor o'g'il-qizlarimiz o'zaro do'stlik, hamkorlik rishtalarini mustahkamlab olishlariga shakshubha yo'q.

Zotan, shoir Behzod Fazlidinning ta'bir bilan aytganda, biz hamon «bolalarimiz kitob o'qimay qo'yishdi» deb nazarda tutayotgan yosh avlod vakillarining kitob yozayotgani chinakam bayram emasi?!?

Tursunboy  
ADASHBOYEV



## «XOTIRA KITOBI»

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning 1994-yil 16-martdagi Farmoni asosida 1941 - 1945-yillardagi Ikkinchi jahon urushida halok bo'lgan va bedarak yo'qolgan vatandoshlarimiz xotirasini abadiylashtirish maqsadida nashr etilgan 34 jilddan iborat bu kitobda 431 mingdan ortiq o'zbekistonlik jangchilar haqida ma'lumot mavjud.

## IMIDJ



Karimning birinchi sinfda o'qiydigan ukasi Sobirjon maktabdan ketib o'q savol berdi:

– Ustozim, bayramda she'r o'qiysan, imidjingni o'zgartirib kel, dedilar. Imidj nima, aka?

– Imidj inglizcha so'z bo'lib, qiyofa, tasvir ma'nosini bildiradi. Demak, sen qiyofangni o'zgartirishing kerak, ya'ni bayramga sochingni tartibga keltirib, yaxshi kiyimlar kiyib borishing kerak.

## ELAT

Kishilarning til, hudud, iqtisodiy va madaniy jihatdan tarixan tarkib topgan birligi.

## ELITA

Fransuzcha so'z, eng sara, degan ma'noda qo'llaniladi.





O'tganlarni yod etish, tiriklarni e'zozlash, nuroniylarga mehr-shafqatli bo'lish o'zbek xalqining azaliy odatidir. Bu odat va fazilat «Xotira va qadrlash kuni» arafasida – «Xotira maydoni»da «Xotira saboqlari» o'tkazilayotgani o'quvchilarda qadr-qimmat, burch, imyon-e'tiqod kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalamoqda.

Yunusobod tumanidagi 274-maktabda ham «Marhumlarni yod etish – tiriklar uchun fazilat», «U hayotni sevar edi», «Xotira maydoni – muqaddas qadamjo» mavzularida barcha sinflarda tarbiyaviy soatlar, «Oqtepa» mahallasi faollari bilan tadbir va uchrashuvlar o'tkazildi. Ayniqsa, serg'ayrat muallima Dilorom Mo'minova bu borada ko'pgina ibratli ishlarni amalga oshirdi. U o'zi o'qitayotgan I-«D» sinf o'quvchilarini «Xotira maydoni»ga olib bordi. Bolajonlar «Motamsaro ona» haykali poyiga guldastalar qo'ydilar. Ko'rganlari asosida kichik film yaratib, maktab faollar zalida urush qatnashchilari uchun tashkillashtirilgan «Vatan uchun jon olib, jon berganlar doim azizdir» mavzusidagi tadbirni namoyish etishdi. O'quvchilar ijro etgan kuy-qo'shiqlar, jozibali raqslar, ayniqsa, «Vatan shunqorlari» deb nomlangan yosh askarlar ijrosidagi qo'shichni yig'ilganlar maroq bilan tinglashdi. Quyida tadbir ishtirokchilarining taassurotlari bilan tanishasiz.

# MUQADDAS A'NAVIY TUYG'U



## BUVAM BILAN FAXRLANAMAN

Buvajonim mehnat faxriysi Ergash ota Nurimov sinfimizga kirib kelganlarida, hayron bo'ldim. Sababini suhbatimiz davomida bilib oldim. Ustozimiz buvamni Xotira kuni munosabati bilan uchrashuvga taklif qilgan ekanlar. Katta buvam Nurim ota Ikkinchi jahon urushida qatnashib, halok bo'lganlari haqida uzoq hikoya qildilar.

«Xotira kitobi»da ism-shariflarini o'qib, buvamga mehrim tovlanib ketdi. Ularga munosib nabira bo'laman, deya ahd qildim.

Shahnoza MIRVOHIDOVA,  
5-«A» sinf o'quvchisi

## EZGU ISHLAR DAVOMCHISIMIZ

Tarixini unutgan, ajdodlarning qadriga yetmaydigan millatning istiqboli yo'q. Bu haqiqatga rioya etib, sinfimizda «Ogoh bo'laylik, inson azizdir» mavzusida tarbiyaviy soat o'tkazdik. Maktabimizdagi «Mangulik xiyoboni»ga chiqib, guldastalar qo'ydik. Sinf rahbarimiz Mahmuda Valiyeva bizni O'zbekiston istiqloli, uning sha'ni shavkatini himoya etish, bugungi yorug', dorilamon kunlar qadriga yetib yashashga da'vat etdilar.

Safid MURODOV,  
9-«A» sinf o'quvchisi



## USTUNLARI NAQSHINKOR AYVON

Ustozimiz Dilorom opa bizni «Xotira maydoni»ga olib bordilar. Hammayoq top-toza, gullar ochilib yotibdi. Naqshlar bilan bezatilgan ayvonlar, «Xotira kitobi»ni ko'rib, bobolarimiz jasoratiga qoyil qoldik. Bizning baxtimiz, tinchligimiz uchun kurashgan bobolarimizga ta'zim qilamiz!

Umidjon ABDURAHMONOV,  
1-sinf o'quvchisi

## ONALAR DOIMO ARDOQDA BO'LSIN!

«Motamsaro ona» siyosida farzandi dog'ida ezilgan, yaqin kishilaridan ayrilgan mushtipar ayolning qalb kechinmalarini his qildim. Mustaqillik davrida onaxonlar-u opalarimizning birlari senator, birlari tadbirkor, birlari muallima... Ular har jabhada ilg'or.

Istardimki, onalar doim ardoqda bo'lsin.

Azimjon VAHOBOV,  
Husniddin NIZOMOV,  
9-«A» sinf o'quvchilari

### «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» tanloviga

Hurmattli o'quvchilar!

Furtimiz Mustaqilligining 20 yilligiga bag'ishlab «Mustaqillik madhi bolalar ijodida» nomli tanlov boshlangani haqida xabar bergan edik. E'tiboringizga ana shu tanlovga kelgan maktublardan birini havola etamiz.



Biz ham nafaqat tomoshabin, balki bevosita ishtirokchiga aylangan mazkur tadbir juda qiziqarli o'tdi. Ayniqsa, Ergash otaning maroqli suhbatlari jajji bolajonlarga juda yoqdi. Ham olim, ham bog'bon pir-u badavlat bu otaxonning har bir duosi ijobat bo'lgay.

Gulyuz BAHODIR qizi

# TILLOLARGA ALISHMAM, YURTIM!

Mening

Vatanim

Mustaqil

O'zbekiston!



U dunyodagi eng qadimiy va betakror yurtdir. Barchamiz uning bag'rida yashaymiz, musaffo havosidan nafas olamiz, zilol suvidan, beqiyos ne'matlaridan bahramand bo'lamiz. O'zbekiston

deganda ko'z oldimizda Farg'o-naning go'zal shaharlari, Buxoro, Samarqand, Xivanning ko'hna me'moriy obidalari, Toshkentning go'zal qiyofasi-yu, Surxonning issiq quyoshi gavdalanadi.

Yurtimiz jahon taraqqiyotida jadal rivojlanib borayotgan davlatlardan biri hisoblanadi. Istiqlolga erishganimizdan so'ng o'zining bayrog'i, gerbi, madhiyasiga ega bo'ldi.

Bizning boyliklarimiz juda ko'p. Mustaqillikka erishgach bu boyliklar o'zimizniki bo'ldi. Bunga paxta, neft, gaz, rangli metallarni misol qilishimiz mumkin. Yurtimizda bir qancha sanoat korxonalari, zavodlar qurilib ishga tushirilgan. «NEXIA», «MATIZ», «DAMAS», «LASETTI», «SPARK» singari avtomobillar nafaqat o'zimizda, balki butun jahonda alohida e'tirof etilmoqda.

Mening yagona maqsadim shu yurtga munosib farzand bo'lish.

Sherzod SHAVKATOV,  
Surxondaryo viloyati,  
Sherobod tumanidagi  
41-maktabning  
8-sinf o'quvchisi

## BIZ KIMMIZ?

Hech birimizga sir emaski, hozir ayrim yoshlarimizning o'zlariga nomunosib kiyinishlari jamiyatimizning eng og'riqli nuqtalaridan biri hisoblanadi.

Inson har qanday vaziyatda ham o'zining kim ekanligini, kimlarning avlodi ekanligini chuqur his etmog'i lozim. Ko'r-ko'rona, g'arbga taqlid qilish bu ma'nadan qashshoq kishi ishidir. Ammo ko'plab yigit-qizlarning kiyimlaridagi yozuvlar aynan qanday ma'noni anglatishini tushunmay, kiyib yurishlari kishini ranjitadi. Misol uchun kuni kecha avtobusda bir yigitga ko'zim tushdi. Ko'rinishidan yaxshi yigitga o'xshaydi-yu, ammo kiyib olgan futbolkasidagi yozuvni ko'rib hang-u mang bo'lib qoldim. Agar ana shu so'zlar o'zbek tiliga to'g'ridan-to'g'ri tarjima qilinsa, shunday behayo so'z ma'nosini beradiki, yozgani ham odam uyaladi.

Niyatim, qani endi yurtimizdagi barcha yoshlar o'z burch va mas'uliyatlarini to'liq anglab yetsalar. Shundaygina biz oldimizga qo'ygan barcha maqsadlarga erishgan bo'lar edik. Shundaygina hech qanday buzg'unchi va yot g'oyalarni ongimizni buza olmaydi.

Munira ABDULLAYEVA,  
O'DJTU talabasi

**Dunyoda shodiyonalar, tantanalar ko'p, lekin inson qadrini ulug'laydigan, xotirasiga hurmat-ehтиrom ko'rsatiladigan biznikidek bayram kam uchraydi.**

**Yurtboshimiz tashabbuslari bilan**

**9-may – Xotira va qadrlash kunining yurtimizda keng tantana qilinishi fikrimiz dalili bo'la oladi.**

**Quvonarlisi, bunday bayramlar sabab, yoshlarimiz ongu-shuurida o'tganlarni yod etish, yoshi ulug'larni e'zozlash kabi go'zal insoniy fazilatlar shakllanmoqda.**

**Quyida e'tiboringizga o'quvchilarimizning bobo-yu momolari xotiralari asosida yozgan hikoyalardan havola qilamiz.**



**Men buvijonimga juda bog'lanib qolganman, biror kun ko'rmasam, suhbatlashmasam, qimmatbaho buyumini yo'qotib qo'ygan odamdek his qilaman o'zimni.**

**Tunov kuni ularnikiga borsam, xayol surib o'tirgan ekanlar. Sababini so'rasam:**

– Yoshligim esimga tushib ketdi, – dedilar og'ir xo'rsinib. – u kunlar haqida men gapirmay, sen eshitma.

Buvimni qo'yarda-qo'yamay xotiralarni so'zlab berishga ko'ndirdim.



Osimxon VOSIXONOV chizgan rasm

## BUVIMNING HIKOYASI

– Urush yillarining og'ir va ayanchli kunlarini boshimizdan kechirayotgandik. Ko'pchilik ayollar, bolalar qatori 14 yoshli akam ham zavodda mehnat qilardilar. Onam bo'lmagani uchun ro'zg'ordagi barcha yumushlar opamning zimmasida edi. Maktabga borishga sharoitimiz yo'q edi. Hali xo'roz qichqirmasidanoq ko'chalarni supurishga yo'l olardim. Topgan choychaqamga oziq-ovqat va boshqa ro'zg'orga kerakli narsalarni sotib olardim.

so'rasam, akamning qo'li stanokka kirib ketganini aytib, yana yig'lab yubordilar. Nima qilishimni bilmay, zavodga qarab yugurdim. Borsam, akam qip-qizil qonga belanib yotibdi, dadam esa uning boshida faryod chekyapti. Akamning faqat qo'li emas, yuzi aralash yarim tanasi mashinaning ichiga kirib ketgan ekan. Qo'rqqanimdan haykaldek qotib qoldim. Ahvolimni ko'rgan akam yarimta yuzi bilan jilmayishga harakat qilib, me-

ni yoniga chorladi. Yig'lab bo'rib, bag'riga otildim. Bechora akam meni quchay desa, qo'li yo'q.

– Men oyimning yoniga ket-yapman, seni o'qitilmaganimni eshitsalar, mendan xafa bo'ladilar. Iltimos singlim, o'qigin, – dedilar bazo'r. Ammo javobimni eshitmay, dunyodan ko'z yumdilar.

Akam yig'lashimni yomon ko'rardilar, shuning uchun yig'lamadim, faqat haqlariga duo o'qidim...

Yillar o'tdi. Men o'qidim, katta lavozimlarda ishladim. Hozir jarrohman. Lekin hamon bir narsadan afsusdaman: nima uchun akamga «o'qiyman» deb aytmadim?..

Aslida insonning hayotida birgina voqea, hatto birgina so'z ham uni bir umr qiynab o'tarkan. Shuning uchun har bir ishni qilishga, har bir so'zni o'z vaqtida aytishga ulgurish juda muhim ekan, – deya mungli hikoyalari yakun yasadilar buvim.

Tunov kuni buvim ikkimiz akalari qabrini ziyorat qilgani bordik. Guldastalar qo'yib, haqlariga duo o'qidik...

Laylo SUVONQULOVA,  
Buxoro viloyati,  
G'ijduvon tumanidagi  
63-ixtisoslashtirilgan maktab-  
internatning 7-«B» sinf  
o'quvchisi

**Qovchin qishlog'imizda Qo'yli bobojonimni tanimagan odam yo'q. Keksa-yu yosh, bugungi baxtli, farovon hayotimiz uchun kurashgan bobo, qishlog'imiz faxri, deya ardoqlashadi. Ayniqsa, Xotira bayrami arafasida xonadonimizdan mehmon arimaydi.**

## QISHLOG'IMIZ FAXRI

1943-yil 23 yoshida frontga ketgan bobom Qo'yli Xushshiyev pulemyotchi bo'lgan ekanlar. 1944-yilning noyabrida 2-Belorusiya frontida jang qilgan bobom shiddatli janglardan birida og'ir yarador bo'lib, gospitalga tushganlar.

O'sha yilning dekabr oyida bir ko'zlaridan ayrilib, uyga qaytdilar.

91 yoshli bobojonim hamon odamlarga yaxshilik, ezgulik ulashib yashaydilar, hamqishloqlaridan o'git va maslahatlarini ayamaydilar.

Biz nabiralari ularni ko'rgani borsak, og'ir xo'rsinib, urush xotiralari bilan so'zlaydilar, jangdan qaytmagan Normurod Toshov, Azim Qoraqulov, Qo'ziboy Bo'ddiyev, Bahrom Haydarov, Davron Eshonqulov, Hasan Sherov, Hasan Norqulov kabi hamqishloqlarimiz haqiga duolar o'qiydilar...

Har yili 9-mayni ahil va katta oilamiz jamuljam bo'lib, katta bayram qilamiz.

Yurtboshimiz tomonidan ko'krak nishonlari, qimmatbaho sovg'alar bilan taqdirlangan bobojonimni qutlaymiz. Jajji uka va singillarimiz tizzalariga o'tirib olib, orden va medallarini sanashga tutinshadi.

Odatda ko'pchilik bobo-yu momolarimiz nabira va abiralarning ismlarini chalkashtirib yuborishadi. Qo'yli bobodan esa, nabiralaringiz qancha, deb so'rab qolgudek bo'lsangiz, sonimiznigina emas, Sadoqat, Aslbek, Umidjon, Dilbek, Anora, G'iyos, Hasan, Husan, Bonu... deya ismlarimizni ham sanay ketadilar. 16 nabira, 43 abirasining ismlarini yoddan biladigan, bor mehrini barchamizga barobar taqsimlaydigan shunday bobomiz borligidan faxrlanamiz, bundan ham uzoqroq umr ko'rishlarini tilaymiz.

Sadoqat QO'YLIYEVA,  
Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumanidagi 24-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi

## BIZ BAXTIYOR AVLODMIZ

Shunday baxtli, farovon hayotimiz uchun kurashgan insonlarni har qancha e'zozlasak, xotirasiga ehtirom ko'rsatsak oz.

Ikkinchi jahon urushi yillari janglardan birida boshi va jag'idan

yarador bo'lgan bobom, jarohati bitarbitmas yana jangga kirib ketgan ekanlar. G'alabaga o'z hissalarini qo'shib, yurtga sog'-omon, yorug' yuz bilan qaytibdilar.

2007-yili og'ir xastalikdan so'ng bobojonim olamdan o'tdilar. Biz nabiralari ularni juda sog'inamiz, suhbatlarini qo'msaymiz. Shunday kezlarda qabrlarini ziyorat qilgani boramiz. Xotira kunida u yerni obod qilib, guldastalar qo'yamiz. Jangchi bobomizga munosib nabira bo'lishga va'da beramiz.

O'tkirbek NIZOMOV,  
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumani

## SHUKRONALAR AYTAMIZ

Har kuni televizor orqali dunyoda bo'layotgan voqealarni kuzatib, yurtimizdagi tinchlik, osoyishtalikning boqiy bo'lishini niyat qilamiz. Bu kunlarga ko'z tegmasin, deymen. Maktabimizda har yili Xotira va qadrlash kunida keksa avlodga hurmat, urush faxriylariga ehtirom ko'rsatish yaxshi an'anaga aylanib qolgan.

Maktabimiz direktori Maqsudbek Matniyozov boshchiligidagi bir guruh a'lochilari o'quvchilar urush qurbonlari sharafiga o'rnatilgan yodgorliklar po'yiga gulchambarlar qo'yamiz, bu farovon kunlarimiz uchun shukronalar aytamiz.

Anorjon MATMURATOVA,  
Mehribon EGAMBERDIYEVA,  
Xorazm viloyati, Hazorasp tumanidagi  
38-umumta'lim maktabi o'quvchilari



Sahifani ZAMONBEKA tayyorladi



... Urush tugadi. Fashistlarning qabih hujjatlari orasidan bir tarixiy surat topildi. Unda bir-biridan shirin, xushchaqchaq o'g'il-qizlar o'z muallimi bilan o'tirishardi. O'shanda ular birinchi sinfda o'qishardi. Bilimga juda tashna edi bu polaponlar! Orzulari-chi? Bir olam edi! O'quv yili tugashi arafasida sevimli o'qituvchilari bilan esdalikka suratga tushishdi. Bir umrga eslash uchun. Yoshlari ulg'ayganda ko'rib, o'zlarini ham, boshqalarni ham hayratlantirmoqchi edilar. Haqiqatan ham bu tarixiy surat eng noyob esdalik bo'lib qoldi. Bolalar esa fashizm qurboni bo'lishdi. Hikoyamiz ular haqida, ularning ayanchli taqdiri haqida...

Yoz oylarida Chexoslovakiyaning Lidisa qishlog'ida bir bor mehmon bo'lgan kishi bu yerda umrbod ketgisi kelmasdi. Ko'm-ko'k o'tloqlar, bog'rog'lar, zangori osmon va musaffo havo kishiga huzur bag'ishlardir. Bu go'zallik nemis-fashistlarga yoqmadir. Uni toptab, vayron qilgan, himoyasiz qishloqdan qo'shiq aytib o'tib ketishdi. O'shanda odamlar qonxo'r bosqinchilarning yovuz niyatiga tushunishmadi. Dushmanning kirdikorlari shu bilan tugadi, deb o'ylashgandi. Bolalar ham burgut tamg'ali nemis soldatlarining bosh kiyimlarini, g'oz yurishlarini tomdan rosa tomosha qilishgandi o'shanda. Hali dushman nimaligini, uning shum niyatlarini bilishmasdi ular!

Dushman yana qaytdi, shiraga o'rgangan pashshaday yopirilib keldi. 1942-yilning 9-iyun kuni gruppenfurer Frenk politsiya boshlig'i Grest Bemga telefon qilib, Lidisa qishlog'i haqida shunday buyruq berdi: «Hamma erkaklar otib tashlansin. Ayollar konsentratsion lagerlarga jo'natilsin. Bolalar tezlik bilan Germaniyadagi es-eschilarning oilalariga yuborilsin. Agar bu qo'l kelmasa, tarbiyaning boshqa usullari qo'llanilsin. Qishloq esa yondirilib, yer bilan yakson qilinsin!».

Fashist gazandalari kallakesar boshlig'ining buyrug'ini yashin tezligida ado etishdi. Ular norasida go'daklarni aldashedi. Bolalarga: «Sizlarni poyezdda sayr qildiramiz. Shaharlarni, yodgorliklarni, o'rmonlarni tomosha qilasz. Bunday imkoniyat sizlarga boshqa hech qachon nasib etmaydi...» - deyishdi.

Qalbi pok qishloq bolalari bunga ishonishdi. «Bizlarni o'ynatgani olib ketishyapti», deya rosa quvonishdi ham. Lekin fashistlar odam qiyofasini yo'qotgan vahshiylar edi.

## LIDISA BOLALARI

Bolalarni Kladio qishlog'iga olib kelishdi. Ular orasida olti bola ikki yoshga, eng kichigi esa hali bir yoshga ham to'lmagan go'dak edi. Bir zumdayoq «sayrga» chiqqan quvnoq bolalarning chehrasini qo'rquv bosdi. Ayriqliq yoshlari selday oqdi.

Gestapo esa bolalarning rangiga, ko'ziga, sochiga, ko'rinishiga qarab guruhlarga ajratdi. Ularga yangidan ism qo'yishdi. Ammo, uydagidek o'ynashga o'yinchoq, shirin taom berishmadi. Sayrga ham olib chiqishmadi. Ularni tikanlar ortiga, quyoshsiz dunyoga qamab qo'yishdi.

Bolalar to'qson nafar edi. Jajji-jajji o'g'il-qizlar qafasga tushgan qushlarday talpinishdi, yugurishdi, tim qorong'u xonalar ichra! Uydan chiqishsa ham tikanli sim to'rdan nariga o'ta olishmadi. Ayriqliq dardi bolalarni gangitib qo'ydi. Oq-qoraning farqiga bormaydigan bu tutqun go'daklar «NIMA UCHUN?» deya savol berishdi. Savol esa javobsiz qoldi. Murg'ak bolalar ona qishlog'i - Lidisani, mehribon otalarini qo'msashardi. Nachora! Ulardan sakson

ikki nafariga o'zi tug'ilgan qishlog'ini yana ko'rish nasib etmadi.

Lidisa quvnoq bolalardan faqat singan o'yinchoq, to'p va ota-onalariga, qarindoshlariga yozgan maktublari qoldi, xolos. Ular o'qishni, hayotni, turli-tuman o'yinchoqlarni, to'yib ovqat yeyishni juda juda yaxshi ko'rishardi. Bolalar sog'inch bilan xatlar bitishdi. Bu xatlar o'zlariday tikanli sim to'ming ichida qoldi. Ularni urushdan so'ng xaloskor jangchilar o'qishdi. Mana, ular:

«Aziz do'stlar! Xatimizning birinchi satridayoq bizlar: Mila, Marush, Edenak sizlarga Polshadan salom yo'llaymiz. Bizga yeyishga biror narsa, yana iloji bo'lsa, ikkita qoshiq, ikkita chashka va bitta pichoq yuborsangiz.

Salom va ehtiram bilan:

Mila, Marush, Edenak».

«Sevimli xolajon! Biz Eva, Vande Pelexovskiyalar Polshadan salom yo'llaymiz. Sevimli xolajon. Biz bu yerda ota-onasiz yashayapmiz. Bizda ustimizdagi kiyimdan boshqa hech nima yo'q. Sizdan iltimos, bizga biror narsa, eski tufli yuborsangiz. Yana mehribonlik qilmoqchi bo'lsangiz, bizga bir bo'lak non va pirojniy yuboring. Eva bu yerda betob bo'lib qoldi. Sog'aygan bo'lsa ham, hali bardam emas. Sizlar hammingiz sog'lom va birga yashayapsizlarmi? Ahvollarimiz qanday?

Yana bir salom va iltimos: iloji bo'lsa biror yegulik narsani tezroq yuborsangiz, chunki biz bu yerda qancha bo'lshimizni bilmaymiz.

Salom bilan: Eva Kafkova, Ema va Vande».

Maktublar... Bolalarni intizor kuttirgan maktublar. Ular o'z egalariga yetib bordimi?

Yo'q, bormadi. Javobsiz qoldi. Bolalarning so'nggi najotlari unsiz yo'qoldi. Sho'x kulgulari esa samo bo'shlig'ida muallaq qoldi...

Yana o'sha dushman vayron qilgan Lidisa qishlog'i. Fashistlar, endi hech qachon uning odamlari bo'lmaydi, nomi o'chadi, deyishgandi. Lekin Lidisa qayta tiklandi. Tinchlik timsoli bo'lib, bolalardan yodgorlik bo'lib... Avvalgisidan ham go'zal bo'lib. Bolalari dunyoning turli burchaklaridagi tengdoshlariga butun dunyoda tinchlik, osoyishtalik bo'lishini istab, tinimsiz maktublar yo'llashdi. Bu xatlarning mazmuni bitta: «Hech qachon urush bo'lmasin! Lidisa fojiasi sira takrorlanmasin! Odamlar, bolalarni jallodlardan asrang!»

Jabbor RAZZOQ



**Mahallamizda Asho'rbi aya ismli onaxon yashar edilar. Maktabga borgan, qaytgan paytlarim ko'pincha darvoza oldidagi supachada katta yo'lga termulganlaricha chuqur o'yga tolgan holda o'tirgan onaxonga ko'zim tushardi.**

## FARZANDLAR YO'LIGA KO'Z TIKIB...

Bir kuni darsdan chiqqan paytimiz sharros yomg'ir quyib yubordi. Sinfdoshlarim bilan qiyqirishib, uy-uyimiz tomon chopdik. Shunda supada o'tirgan onaxonga ko'zim tushdi. U kishi qimir etmas, go'yo yomg'ir yog'ayotganini ham sezmasdi.

Uyga yetguncha shalabbo bo'ldim. Ahvolimni ko'rgan onam, tezda

kiyimlarini almashtirib chiq, issiq choy ichmasang shamollab qolasan, deya darov issiq choy damlab keldilar. Issiq choydan tanam yayrab ketdi.

- Asho'rbi aya shamollab qolmasmikinlar? - so'radim boyagi holat ko'z oldimga kelib.

Onam bu gapimdan hayron bo'ldilar. - Nimaga bunday deypasan?

- Shu yomg'irdayam ko'chada o'tiribdilar, - dedim achinayotganimni yashirmay. - Nimaga unday qiladilar?

Onam indamay o'rnlardan turib, ko'chaga chiqib keldilar va tezda qaytib kirdilar.

- Xayriyat, uylariga kirib ketibdilar. Sho'rlik ayaning boshiga tushgani hech kimning boshiga tushmasin. Pahlavon-

larday uch o'g'illari urushga ketib, birin-ketin ular haqida bedarak yo'qoldi, degan mudhish xabar kelgan. Aya esa ulardan hech bo'lmasa biri, albatta, kirib kelishiga ishonadilar. Ba'zan yarim kechasi uyg'onib ketib, ko'cha eshigini ochib qo'yarkanlar. Bolalarim tunda kelib qolishsa, sarson bo'lishmasin deb...

Aya farzandlarini kuta-kuta hasrat bilan dunyodan o'tdilar.

Mamlakatimiz Istiqloqla erishgach, birinchi gald qadriyatlarimizga alohida e'tibor qaratildi. Inson qadri ko'klarga ko'tarildi. Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari nomi bitilgan «Xotira kitobi»ning Mustaqillik maydoniga o'rnatilishi mard jangchilarimiz xotirasiga bo'lgan ehtimorning yuksak namunasi bo'ldi.

Asho'rbi ayaning qizlari, nabiralari zarhal kitob sahifalaridan joy olgan akalari, tog'alarining ism-shariflarini ko'rib, boshlari ko'kka yetdi. Har yili Xotira va qadrlash kuni ular Mustaqillik maydoni tomon oshiqadilar.

Yusuf ABDULLAYEV



Halima AHMEDOVA

## ONAMNING QALDIRG'OCHLARI

Onam qaldirg'ochlarni yaxshi ko'rardi.  
Bahorning uyiga shoshilib borayotgan daraxtlar sevgisi bilan,  
Oftobro'yani sog'ingan chumolilar sog'inchi bilan  
Va tongga talpingan sabolar ilinji bilan ularni suyardi...  
ularni sog'inardi...

Hali tarnovdagi muzlar erimay,  
Hali  
Hali quyoshning begona ufqlarga safari tugamay turib,  
Qalbiga rayhonning urug'ini ekardi, onam.  
Xuddi olisdagi bolalarini ilhaq kutayotgan onaday,  
Yoki baxt kutib charchagan bir bebaxtning orzulariday.  
Ularni ichikib-ichikib kutardi.  
Balki dunyodagi eng xushbaxt bayram –  
Qaldirg'ochlar qaytgan kun– bayrami edi onamning  
Ba'zida hasadim kelardi qaldirg'ochlarga,  
Ular onamning mehrini o'g'irlayotgandek  
Onamdan arazlab so'rardim goho:  
– Nega qaldirg'ochlarni yaxshi ko'rasiz?  
Onam ko'zlarini falakka tikib:  
– Ular xudoning sevimli qushlari,  
Har yil bahorda osmonning ko'zidan  
Suv ichib qaytadi, – der edi onam...  
Onam juda ozoda edi  
Qalbi nurlardan ham ko'p toza edi.  
Uyimiz yuziga qaldirg'ochlar sochgan xaslarni,  
Gul terganday terardi onam.  
Boshidan aylanib-aylanib uchsa  
Ularga jonini berardi onam.  
Men unda bilmasdim onamning ko'ngli –  
Qaldirg'ochlar naslidan ekanligini,  
Men unda bilmasdim onamning umri –  
Mehning faslidan ekanligini...  
Onam paxta savayotganda qanotlarini yoyib,  
Uchayotgan qaldirg'ochga o'xshab ketardi.  
Onam uchib ketmasa deb juda qo'rqardim,  
Bir tun uchib ketdi onam, hech kimga aytmay,  
O'shanda bizlardan ko'proq qaldirg'ochlar yig'ladi.  
Silkinib-silkinib ham og'ochlar yig'ladi.  
Endi har yil bahorda,  
Osmonning ko'zidan suv ichib qaytgan  
Onam qushlaridan men g'arib so'rayman,  
Sarg'ayib so'rayman,  
Siz onamni ko'rmadingizmi?

## KO'NGLIDA YAXSHILIK BOR

Samodan boqquvchi bobojonlarim,  
Har dam bo'lsin deyman joyingiz jannat.  
Siz aziz xotira, dur-marjonlarim,  
Men Sizga munosib bo'laman albat...

Har laha sizlarni eslaganimda,  
Qaniydi oldimda tursalar deyman.  
Mayli-da, tushimda bo'lib yonimda,  
Nurli kelajagim ko'rsalar deyman.

Eslasam, ko'zimda kuladi quyosh,  
Arslon bobom me'mor, bunyodkor edi.  
Ular el-yurtiga madadkor, jondosh,  
Ko'nglida yaxshilik, mehri bor edi.

Ulug' inson, deyman xotirlab,  
U yashagan tuproq gardi, xasiman.  
Men she'rlar yozaman, yozaveraman,  
Chunki Muso Karomning nabirasiman.

Sevara ARSLONOVA,  
Qashqadaryo viloyati, Kasbi tumanidagi  
16-umumta'lim maktabining 7-sinf o'quvchisi



## QISHLOG'IMNING MUALLIMLARI

Ma'rifat yo'lini yoritgan oftob,  
Yorug' nurlaringni aylayin tavob.  
Har bitta so'zingiz men uchun kitob,  
Qishlog'imning dono muallimlari.

To'g'ri yozgin deya uqtirgan bizga,  
O'quvchilar qalbi bog'lanar so'zga.  
Shogirdlar hurmati beqiyos sizga,  
Qishlog'imning dono muallimlari.

Bergan ilmingiz bizga bebaho,  
Mudom undagsiz o'qi deb a'lo.  
Pandingiz yurakka etayapman jo,  
Qishlog'imning dono muallimlari.

Ro'shana SAFARALIYEVA,  
Bo'stonliq tumanidagi G'azalkent  
xizmat ko'rsatish iqtisodiyot va  
huquq kolleji talabasi

## BOBOJONIMGA

Derlar inson umri suv kabi o'tar,  
Bilmadim kimlardan qolgan bu hikmat.  
Ammo bu dunyodan o'tsada inson,  
Nomi mangulikka qolishi hayrat.  
Bobojon, siz aslo o'lganingiz yo'q,  
Yodingiz tirikdir hamon yurakda,  
Nazarimda go'yo chiqib kelasiz,  
Afsonami yoki uzun ertakdan.  
Hayot yaxshilarni ardoqlar mudom,  
Dilni ezgulikka siz naqsh etdingiz.  
Yaxshilik nafasin mehrga joylab,  
Qancha yuraklarga siz baxsh etdingiz.  
Sog'inch dilimizni o'rtaydi hamon,  
Har tong quyosh chiqib o'ylaydi sizni,  
Bobojon, haqiqat nafasi bilan,  
Ruhingiz doimo qo'llaydi bizni.

Sarvinov IBROHIMOVA,  
Navoiy viloyati, Qiziltepa tumanidagi  
30-umumta'lim maktabining  
9-sinf o'quvchisi



## QO'ZICHOQ

Qo'zichoq, qo'zichoq,  
Ko'zlari munchoq.  
Qo'zichoq, qo'zichoq,  
Men senga o'rtoq.

Dikir-dikir o'ynoqlab,  
Quvnoq yuraver.  
Barra o'tlar berayin,  
Chopib kelaver.

Vazira MARDIYEVA,  
Mirzo Ulug'bek tumanidagi  
99-umumta'lim maktabining  
2-«A» sinf o'quvchisi



## SH E'R IYAT AYDOLARIGA

Foshkent viloyati, Zangiota tumanidagi  
73-umumta'lim maktabida bo'lib o'tgan  
adabiyot kochasida tanikli bolalar  
shoirilari Fursunboy Adashboyev  
hamda Abdurahmon Akbar  
ishtirok etishdi.

Uchrashuvda faol qatnashgan o'quvchilar sevimli shoirilarining she'rlarini hishayajon bilan yoddan aytishdi. Tadbirda 1-sinf o'quvchisi Izzatilla Abdullayev, 3-sinf o'quvchisi Gavhar Nig'matullayeva, 5-

sinf o'quvchisi O'g'iloy Ergasheva eng faol ishtirokchi deb topildi. Musiqa to'garagi a'zolari Nurmuhammad Nig'matullayev, Zayniddin Ergashev, Xosiyat Rahmatullayeva, Fotima-



Zuhra Shokirova, Umida Usmonova, Malika Usmonova, Odina Miryunusova, Komila Qo'chqorovalar to'garak rahbari Muzaffar Ahmadjonov boshchiligida chiroyli chiqishlar qilishdi. She'riyat shaydolariga shoirilar ham «yurak tandiri» dan yangi uzilgan qaynoq

she'rlaridan o'qib berishdi. Qarayib ikki soat davom etgan uchrashuv o'quvchilar uchun adabiyot darsi bo'ldi. Maktab direktori Fazliddin Berdiyev, ilmiy mudiri Suyunbek Ismoilovlar mehmonlarga minnatdorlik bildirildi.

Axtamqul KARIMOV



# DOVONLAR OSHAR

**Qadrli sportsevar bolajonlar! Xabaringiz bor, «Barkamol avlod – 2011» o'yinlarining final bosqichi Surxondaryo viloyati, Termiz shahrida bo'lib o'tdi. Unda ishtirok etgan yurtimizning o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi muassasalarining minglab o'quvchilari bor mahoratlarini namoyon etdilar.**

## «BARKAMOL AVLOD»



Darhaqiqat, Prezidentimizning mazkur sport o'yinlari qatnashchilariga yo'llagan tabrigi mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish masalasi davlat siyosati darajasida ekanining yana bir amaliy tasdig'i bo'ldi.

Tabrikdagi quyidagi fikrlarni o'qib, har birimizning qalbimiz faxr va iftixorga to'ladi: «... yurtimizda shakllangan, «Umid nihollari», «Barkamol avlod» va «Universiada» sport o'yinlari deb nom olgan uch bosqichdan iborat noyob tizimni biz ming-minglab yoshlarimiz uchun sport olamida yuksak mahoratlarini egallashda, o'ziga xos parvoz maydonchasi sifatida qabul qilamiz. Bunday samarali tizim siz, aziz bolalarimizni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan yetuk, irodasi baquvvat, imon-e'tiqodi mustahkam insonlar etib voyaga yetkazishda, qat'iyat va mardlik ruhida tarbiyalashda yoshlarimizning chiniqish va mahorat maktabiga aylanib borayotgani barchamizni, albatta, quvontiradi».

Musobaqaning dastlabki bosqichida akademik litsey va kasb-hunar kollejlari ta'lim olayotgan



1 million 600 ming nafardan ziyod yoshlarning 740 nafari ishtirok etdi. Yakuniy bosqichda esa Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlardan kelgan 867 nafar yigit-qizlarimiz sportning 12 turida o'zaro bellashdilar. Nizomga ko'ra, musobaqalar xalqaro Olimpiada talablariga muvofiq o'tkazildi.

Keling, endi sportsevar bolajonlar, Sizlar bilan musobaqa g'oliblari va ishtirokchilarini chindildan qutlagan holda umumjamoa hisobida peshqadamlik qilgan sportchilarimiz bilan tanishaylik:

Toshkent shahri terma jamoa sportchilari bosh sovrin – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning «Barkamol avlod – 2011» sport o'yinlari

qatnashchilariga yo'llagan tabrigining asl nusxasi va Prezident sovg'asi – «Damas» avtomobili bilan taqdirlandilar. Umumjamoa hisobida ikkinchi o'rinni egallagan Surxondaryo va uchinchi pog'onadan joy olgan Xorazm viloyati jamoalariga Prezident sovg'asi – «Damas» avtomobillari topshirildi. Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda: «Mardlarni sevgan Surxon ahli maydonlarga bel bog'lab chiqqan insonlarni hamisha ardoqlab kelgan».

Sport musobaqalarimiz yildan-yilga keng quloqch yoymoqda. An'anamiz davom etmoqda. Mezbonlikni qabul qilib olgan Namangan viloyati vakillariga baland ruh, jo'shqin g'ayrat tilab qolamiz. **Namanganda uchrashguncha!**

### G'OLIBONA ODIMLAYMIZ

«Barkamol avlod – 2011» sport o'yinlarida umumjamoa hisobida ikkinchi o'ringa loyiq topildik. Biz yoshlarga berilayotgan imkoniyat va g'amxo'rliklarga javoban hali jahon arenalarida ham g'olibona qadamlarimizni davom ettiramiz.

**Rayhona DONIYOROVA,**  
Surxondaryo viloyati,  
shaxmat bellashuvi g'olibasi

### MENING OLTIN MEDALIM

Sport, do'stlik va barkamollik bayrami menga oltin medalni hadya etdi. Bellashuvlar yuqori natijalar, rekordlar va unutilmas voqealarga boy bo'ldi. Shunday bahslar bor ekan, biz kelajakda xalqaro miqyosdagi nufuzli sport anjumanlarida qatnashishdan aslo cho'chimaymiz.

**Shahboz SAIDMURODOV,**  
Toshkent shahri, kurashchi

## POYGACHI UCHQUR BO'LAR

Surxon vohamizda sport bayramiga tayyorgarlik ishlarida butun viloyatimiz ahli bir tan-u, bir jon bo'lib mehnat qilishdi. Bugun shahrimizga kelgan kishi uni tanimay qolishi tayin. Asosiy musobaqalarga mezbonlik qilgan «Surxon» sport majmuasi, Termiz Davlat universiteti, 1-, 2-akademik litseylar, san'at, pedagogika, Olimpiya zaxiralari kollejlari binolari, «Delfin» suzish havzasi, «Alpomish» tennis korti, kurash majmuasi yangicha qiyofa kasb etdi.



Yoshlik, shijoat va nafasat bayramida men sportning yengil atletika turida 800 metrga yugurish bo'yicha 2-o'rinni egalladim. Maqsadim, birinchilikni olish edi. Ammo, hayajondanmi, tajribam yetishmadimi, kumush medalga loyiq topildim. Shunday bo'lsa-da, qishloqdoshlarimning g'alabamdan ruhlanib, olqishlashlaridan yanada g'ururlandim. Poygachi shamoldek uchqur bo'lishi lozirligini angladim.


**Boymurod XO'JAYEV,**  
Termiz Olimpiya zaxiralari kollejining yengil atletika bo'limi 2-bosqich talabasi



1. Hazrat Alisher Navoiy bobomiz qalamiga mansub quyidagi misralarda tushib qoldirilgan so'zni topib, o'rniga qo'ying-chi:

**Har kimsaki aylamas oshuqmoqni xayol**

**Yaproqni ifak qilur, chechak bargini ...**



2. «Shaytonvachchani nay-ranglari» kitobini o'qiganmisiz? Uning muallifi kim?

1. Erkin Malik
2. Abdurahmon Akbar
3. Dilshod Rajab

4. 13 raqamiga qanday qaraysiz?

Uni xosiyatsiz raqam deyishadi. Aslida bunday emas. Masa-

lan, Ivan Kojedub degan uchuvchi o'z esdaliklarida, o'rtog'ining 13 raqamli samolyotini o'zinikiga

almashtirib olgani-yu, 330 marta jangovor parvoz qilib, dushmanning 62 samolyotini urib tushirgani haqida yozgan. Ana ko'rdingizmi, ko'nglingizga olmasangiz, bas, hammasi yaxshi bo'lishini unutmang!



# O'ZINGNI SINAB KO'R

3. Muchal bo'yicha hozir qaysi yil?

Bu hisobga ko'ra, muchal yoshiga to'ldingizmi? Bilganlaringizni yozib yuboring!

(Sichqon, sigir, yo'lbars, quyon, baliq, ilon, ot, qo'y, maymun, tovuq, it, to'ng'iz).



Lochin egasining qo'liga o'rgangan edi. U chorlarsa lip etib uchib kelardi-yu, yelkasiga yo bilagiga qo'nardi. Xo'roz bo'lsa doim uydagilardan qochgani qochgan. Don-dun sepib chaqirmasang, yoningga yo'lamaydi. Bir kuni lochin xo'rozga dashnom berdi:

– Senlarda insof yo'q o'zi. Nafsning quliga aylanib qolgansanlar. Tomoq bersa, xo'jayinning ortidan chopasizlar, bo'lmasa undan qochasizlar. Sadoqatni mana bizdan o'rganish kerak. Xo'jayin gah desa, uchib borib qo'liga qo'namiz.

Xo'roz dedi:

– Gapiraverasan-da oshna! Sen umringda qovurilgan lochinni ko'rganmisani? Ko'rmagansan! Qovirilgan jo'jaxo'rozni esa juda ko'p ko'rganсан. Agar patingni yulib, seni ham qozonga bosganlarida, bunaqa valdirab o'tirmas eding.

Sa'dulla bobo



## FAYOZBEGIM

Har tong kulib Ko'zlaring och. Bizga mehr Nurlaring soch.

Ko'zlaringda Kulsin olam. Tez katta bo'l, Asal bolam.

Otang baxting Ko'rsam deydi. Onang baxting Ko'rsam deydi.

Buving shod et Qadam tashlab. Shodliklarni Yurgin boshlab.

Buvajoning Jon dilisan, Annalaring Dil gulisan.

Jonginangga Jonim qurbon. Fayozbegim, Bo'lg'in omon!..

Sevinch NORMUHAMMEDOVA

## BOSHQOTIRMA

Avvalo quyida ta'riflari bayon etilib, raqamlarda ifodalangan taniqli ijodkorlar ism-shariflarida berilgan kalit so'zlarni toping.

1. O'zbek roman-chiligi asoschisi, atoqli adib, qatag'on davri qurboni – 1, 13, 3, 22, 7, 7, 1, 15, 6, 3, 2, 5, 2, 16.

2. «Sariq devni minib» asari muallifi O'zbekiston Xalq yozuvchisi – 11, 22, 3, 6, 16, 13, 21, 5, 3, 2, 12, 20, 11, 12, 1, 13, 6, 19, 21, 19.

3. Bolalarning ustoz bastakori, O'zbekiston Xalq artisti, «Qo'shig'im-jon qo'shig'im», «Birgalikda kuylaymiz» ko'rsatuvlari boshlovchisi – 10, 21, 5, 9, 1, 12, 16, 6, 5, 9, 1, 12, 6, 19.

4. O'zbek bolalar yozuvchisi – 18, 1, 17, 1, 5, 13, 1, 5, 4, 6, 16, 21, 19.

5. «Otamdan qolgan dalalar» romani muallifi, O'zbekiston Xalq yozuvchisi – 12, 6, 23, 1, 16, 9, 22, 5, 6, 3.

6. Atoqli bolalar shoiri – 8, 1, 17, 1, 5, 3, 2, 16, 6, 5.

7. «Zarbulmasal» asarini yozib qoldirgan o'zbek mumtoz, masalnavis shoiri – 14, 22, 7, 11, 1, 4, 2, 16.

Endi kalit so'zlari javoblari asosida shakldagi raqamlarni harflar bilan almashtirib, muammonomani hal eting. Bunda undagi ibratli so'zlarni bilib olasiz.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

6	4	1	19	1	12	1	4	2	9	2
13	2	7	1	4	13	2	5	14	1	8
1	7	15	2	9	2	8	14	1	3	8
10	11								8	1
1		5							11	1
7	10	2							6	9
5	1	3							18	6
2	7	12							4	10
12	5	1							21	3
6	3	16							4	6
11	1	2							14	10
15	5								20	
2	3	1	15	23	22	7	22	17	12	
4	2	4	5	1	7	16	2	5	11	1
5	1	7	2	16	6	3	2	17	4	1

BOSH MUHARRIR: To'liqin HAYITOV

Dizaynerlar: Fazliddin SHOYODGOROV, Olovuddin ORIPOV, Navbatchilar: Feruza SOYIBJON qizi, Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI: Avaz MARAHIMOV, Svetlana INOMOVA, Qahramon QURANBOYEV, Odina JAMOLDINOVA, Jabbor RAZZOQOV, Murtazo SULTONOV, Feruza JALILOVA (Bosh muharrir o'rinbosari), Feruza ADILOVA (mas'ul kotib), Dilmurod RAHMATILLAYEV, Dilshoda DADAJONOVA

Manzillimiz: Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi, 30-uy. Indeks: 100129. Obuna indeksi: 198. e-mail: tong1924@bk.ru www.tongyulduzi.uz Tel: 244-27-25, 244-63-08 Tel./faks: (99871) 244-38-10

«O'zbekiston» NMIUda chop etildi. Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. ISSN 2010-6092 Adadi - 69069 Buyurtma N: J 1722

Muassislar: O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, «KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi, «SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lgan Xalqaro xayriya jamg'armasi.